

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Foydalanib kelinayotgan gidrotexnika inshootlarining xizmat muddatini uzaytirish uslubi va texnologiyalarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Tashqi omillarni hisobga olgan holda uzoq yillardan buyon ishlatilayotgan III va IV sinf gidrotexnika inshootlarining xizmat muddatini uzaytirish uslubi ishlab chiqish; - Belgilangan xizmat muddati tugagan III va IV sinf gidrotexnika inshootlarining xavfsizlik mezonlarini aniqlash va avariya olib kelish mumkin bo'lgan ssenariylarini ishlab chiqish; - Foydalanib kelinayotgan III va IV sinf gidrotexnika inshootlari xususiyatlari asosida xizmat muddatini uzaytirishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Tadqiqot natijalari Suv xo'jaligi vazirligining tizim tashkilotlarida sinovlardan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Suv xo'jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma'lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Suv xo'jaligi vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.